



## Improving students' critical thinking skills through the stories “Masnaviyi manaviy”

Oydin USMONOVA<sup>1</sup>

Bukhara State Pedagogical Institute

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 15 December 2024

Available online

25 January 2025

**Keywords:**

thinking operations,  
critical thinking,  
creative approach,  
objective assessment,  
conflict situation,  
objective solution.

### ABSTRACT

The all-round development of students in higher education institutions will address the state's and society's need for qualified specialists and experienced personnel in the future, while also enhancing the efficiency of the educational system. An objective and adequate response to every situation, independent and free thinking, and the ability to navigate complex situations are crucial skills for every individual. In this context, critical thinking plays a vital role. This article explores ways to improve students' critical thinking skills.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss6-pp116-121>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Talabalarining tanqidiy fikrlash ko`nikmalarini “Masnaviyi ma`naviy” hikoyalari vositasida takomillashtirish

### ANNOTATSIYA

**Kalit soʻzlar:**

tafakkur operatsiyalari,  
tanqidiy fikrlash,  
kreativ yondashuv,  
obyektiv baholash,  
konfliktli vaziyat,  
xolis yechim.

Oliy taʼlim muassasasi talabalarining har tomonlama rivojlanishi davlat va jamiyatning kelajakda malakali mutaxassis, tajribali kadrlarga boʻlgan ehtiyojini qondiradi, taʼlim tizimining samaradorligini oshiradi. Har bir vaziyatga obyektiv, adekvat munosabat bildirish va baholash, mustaqil va erkin fikrlash, qiyin vaziyatlardan chiqib keta olish har bir shaxs uchun oʻta muhim hisoblanib buning uchun tanqidiy fikrlash katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada talabalarining tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini takomillashtirish haqida fikr yuritiladi.

<sup>1</sup> Basic doctoral student, Bukhara State Pedagogical Institute.

# Совершенствование навыков критического мышления учащихся посредством рассказов «Маснавийи маънавий»

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

мыслительные операции, критическое мышление, творческий подход, объективная оценка, конфликтная ситуация, объективное решение.

Всестороннее развитие студентов вузов играет ключевую роль в удовлетворении потребностей государства и общества в квалифицированных специалистах и опытных кадрах. Это не только способствует подготовке профессионалов будущего, но и повышает общую эффективность системы образования. Особое значение для каждого человека имеют объективная оценка ситуации, умение мыслить самостоятельно и свободно, а также находить выход из сложных обстоятельств. Эти качества невозможно развить без критического мышления, которое играет фундаментальную роль в формировании личности. В данной статье рассматриваются пути совершенствования навыков критического мышления у учащихся.

Prezidentimiz davlatimiz ta'lim tizimi yosh avlod qo'lida ekanligini juda ko'p bora ta'kidlaganlar xususan yoshlar bilan uchrashuvda "Takror va takror aytaman: Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi! Yoshlarimizning faolligi, Vatanimiz taqdiri va taraqqiyotiga befarq emasligi, ertangi kunga katta umid va ishonch bilan qarayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Biz bugungi O'zbekiston bu — kechagi O'zbekiston emas, deb ko'p gapiramiz. Buning isbotini avvalo yoshlarimiz siymosida, ularning yutuq va g'alabalarida ko'ramiz. Sizlarning har bir yutug'ingiz, g'alabangizni o'zimning yutug'im, o'zimning g'alabam, deb qabul qilaman." Chindan ham yoshlar kelajak tayanchi, ularni har tomonlama barkamol avlod qilib voyaga yetkazish biz pedagoglarning asosiy vazifamizdir. Jahon ta'lim tizimi shaxsni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda uni tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim omil ekanligini bong urmoqda. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy dunyoda ta'lim jarayonining asosiy talabidir. Bu mahorat chegaradan tashqarida fikr yurita oladigan, tezkor harakat qila oladigan, tahlil qila oladigan, muammolarni oldindan ko'ra oladigan va to'g'ri qaror qabul qila oladigan, mehnat bozorida talabga ega bo'lgan boshqaruv kadrlarini tayyorlash uchun zarurdir. Tanqidiy fikrlash– bu yosh mutaxassisga adaptatsiya jarayonida taklif qilingan nuqtai nazar yoki xulq-atvor modeli to'g'risida qat'iy qaror chiqarishga imkon beradigan maxsus faoliyat turi. "Tanqidiy fikrlash" - bu ma'lum bir pedagogik yondashuvning belgisi bo'lib, matnga, tanqidiy munosabat asosidagi pedagogik texnika sifatida o'rganila boshlangan. "Tanqidiy fikrlash" - yangicha qarash, bu texnologiya bilishning yangi usulini rivojlantirishni ta'minlaydi. "Tanqidiy fikrlash" texnologiyasi mutaxassisning intellektual va hissiy faoliyatini faollashtirib, shaxsiyatini mehnat jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.1 Maykl Skriven (Garvard universiteti professori) tanqidiy fikrlashni o'rganishning eng ko'p nashr etilgan muallifi sifatida zamonaviy voqelikka eng mos keladigan ta'rifni taklif qildi: "Kuzatuvlarni, aloqalarni, ma'lumotlarni mohirona talqin qilish va baholash va aniq

dalillarni ilgari surish qobiliyati. keyingi fikrlar va harakatlarga tegishli”2deya hisoblaydi. Xarris va Xodjes tanqidiy fikrlashni matn sifatini o'rganish va tahlil qilish orqali uning qiymatini yoki ta'sirini tanqidiy baholash bilan solishtirdi3.. Tanqidiy fikrlash murakkab jarayon bo'lib u o'z ichiga bir necha qismni oladi va ularning qisqartmasi ilmiy tilda 4+C deb yuritiladi.

1. *Creativity (kreativlik)* talabalar muammolarni hal qilish, tizimlar yaratish yoki ilgari sinab ko'rmagan narsalarni sinab ko'rish orqali qanday qilib ijodiy bo'lishni o'rganishlari mumkin. Bu har bir talaba rassom yoki yozuvchi bo'ladi degani emas. Buning o'rniga, ular muammoga turli nuqtai nazardan, jumladan, boshqalar ko'rmaydigan nuqtai nazardan qarashlari mumkinligini anglatadi. Kreativlik talabalarga katta rasmni rejalashtirishdan puxta tashkil etishgacha bo'lgan ichki kuchli tomonlarini qamrab olishga imkon beradi. Talabalar o'z ijodlarini o'rganish bilan birga, uni sog'lom va samarali tarzda ifoda etishni ham o'rganadilar. Eng muhimi, ular o'z ijodini boshqalar bilan baham ko'rishga undaydilar. Talaba muammoga qiziqarli yoki innovatsion yechim yaratsa, keyingi talaba shunga o'xshash narsani sinab ko'rish uchun ilhomlanishi mumkin. Kreativlikning maqsadi talabalarni an'anaviy talablardan boshqacha fikrlashga undashdir. Ular har doimgidek ishlarni qilishlari shart emas. Buning o'rniga ular yaxshiroq yo'lni topishlari mumkin. Talabalar o'z ijodlarini yolg'iz o'zlashtirmasliklari kerak

2. *Critical thinking (Kritik fikrlash)* Tanqidiy fikrlash boshqa fazilatlar qatorida muammolarni hal qilish amaliyotidir. Muammolar ustida ishlash, boshqotirmalarni yechish va shunga o'xshash faoliyatdan tashqari, tanqidiy fikrlash skeptitsizm elementini ham o'z ichiga oladi. Bu XXI asrda muhim bo'lgan jarayondir. Tanqidiy fikrlash ta'lim oluvchilarga, ayniqsa, muammo yechimini oddiy fikrdan ajratish haqida gap ketganda, tasdiqlarda haqiqatni aniqlashga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash bilan talabalar shunchaki bir qator faktlar yoki ma'lumotlarni o'rganmaydilar. Buning o'rniga, ular o'zlari uchun fakt va ma'lumotlarni qanday topishni o'rganadilar. Savollar berish orqali yon-atrofdagi turli masalalar, vaziyatlar bilan shug'ullanadilar. Shunda ular o'z bilimlarini tengdoshlariga tarqatishda, boshqalarga ham tanqidiy fikrlashga yordam berishlari mumkin. Talabalar o'zlashtirgan bilimlarini boshqalar bilan baham ko'rishlari tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning eng muhim jihatidir. Ular tanqidiy fikrlashni o'rganadilar yoki oddiygina kundalik hayotda bu ko'nikma mustaqil hayotga va maqsadli fikrlashga tayyorlaydi. Shunday bo'lsa-da, tanqidiy fikrlash XXI asrning to'rtta C ko'nikmalaridan biridir.

3. *Collaboration (Kollaboratsiya)* bu umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ishlash amaliyotidir. Hamkorlik juda muhim, chunki talabalar buni tushunishadi yoki yo'qmi, ular butun umri davomida boshqa odamlar bilan ishlashadi. Deyarli har bir ish boshqa odam bilan ishlashni talab qiladi. Hamkorlik va jamoada ishlashni mashq qilish talabalarga muammoni qanday hal qilishni, yechimlarni taklif qilishni va eng yaxshi harakat yo'nalishini tanlashni tushunishga yordam beradi. Boshqa odamlar har doim ham ular kabi g'oyalarga ega emasligini bilish ular uchun foydalidir. Shunday qilib, o'quvchilar biror fikrga ega bo'lganda, gapirish kerakligini o'rganadilar. Ularning g'oyalari muammoga to'g'ri kelmasa ham, o'z yechimlarini gapirish va baham ko'rish ularga boshqalar bilan hamkorlik qilishda yordam beradi.

4. *Communication (Kommunikativlik)* ko'pincha bugungi jamiyatda odatiy hol sifatida qabul qilinadi. Gap shundaki, talabalar muloqotni mashq qilar ekan, ular o'z

nuqtai nazarini yoki auditoriyasini yo'qotmasdan g'oyani samarali etkazishda yaxshiroq bo'lishadi. Samarali muloqot san'atini o'zlashtirganda, talabalar o'z g'oyalarini tartibga solishi va atrofdagilarda ijobiy taassurot qoldirishi mumkin. Shunga qaramay, 21-asr ko'nikmalariga ega bo'lgan talabalarga yordam berish uchun muloqotning o'zi yetarli emasligini ta'kidlash muhimdir. Haqiqatan ham muvaffaqiyatga erishish uchun talabalar ushbu to'rtta ko'nikmalarni birgalikda qo'llashlari kerak. Yuqorida ta'kidlangan ko'nikmalarning faqat bittasi emas balki to'rttasi ham talabaga rivojlantirilsa, muammoli vaziyatlarga to'g'ri yechim beradi, qolaversa qaror qabul qilishda erkin va mustaqil bo'ladi, ta'limiy va tarbiyaviy nizolar yuzaga kelganda undan chiqib ketish yo'llarini qidiradi, boshqa talabalar bilan sog'lom raqobat asosida faoliyat yuritadi, egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiiq eta oladi. Bularning natijasida o'z ishining malakali mutaxassisi, shaxsiy va kasbiy qobiliyatlar, akademik bilimga ega, kompetentligi yuqori shaxs bo'lib yetishadi. Bu kabi kadrlarga har bir mamlakat muhtojdir. Nafaqat ta'lim sohasida, balki ishlab chiqarish, sanoat, turizm, madaniyat, san'at va ijtimoiy sohalarda ham talab juda yuqori bo'lib qolmoqda. Shu sababli ham jahon ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarni tanqidiy fikrlash ko'nikmasini yuqori sur'atda rivojlantirish haqida bong urmoqda. O'rinni savol tug'ilishi mumkin: tanqidiy fikrlash muhim omil ekan uni yanada rivojlantirish uchun nima qilish mumkin? Ko'pchilik pedagoglar, ilmiy tadqiqotchilar, professorlar bu borada turlicha fikr yuritishmoqda; innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim - tarbiya jarayoniga olib kirish, sun'iy intellektni qo'llash, talabalarga motivatsiya va stimull berish kabi ijtimoiy-psixologik metodlarni qo'llash kabi variantlar mavjud. Har bir usuldan unumli foydalanish orqali natijaviylikka erishish mumkin. Ilmiy tadqiqotchi sifatida Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" hikoyalari vositasida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish mumkin deb hisoblayman. Rumiyning Shoh asari bo'lib 500 yil mobaynida madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan. Qolaversa, Temuriylar va Usmonli turklar saltanatida boshqaruv va yuqori lavozimlarga tayinlanadigan mulozimlar ushbu asarni o'qib tugatgan bo'lishlari shart bo'lgan. Ushbu asar olti tomdan iborat bo'lib, har bir kitob o'z ichiga turli hikoya va rivoyatlarni qamrab oladi. Har bir hikoyadan bir emas bir nechta hukm chiqarish mumkin, asardagi hikoyalar talabalarni chuqur mulohaza qilishga undaydi, savollar girdobiga tashlaydi, bugungi kundagi vaziyatlarga, muammolarga bog'laydi, qissadan hissa chiqarishni o'rgatadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek tanqidiy fikrlashning asosini baholash, hukm chiqarish, fikrlarini erkin bayon etish, nizoli vaziyatlardan oson chiqish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish, jamoa bilan ishlash, muloqot madaniyatini o'z ichiga oladi. Hikoyalarni o'qir ekanmiz, qissadan hissa chiqarish uchun bir nechta tafakkur operatsiyalaridan foydalanamiz. Va shunday hikoyatlar borki ularga o'nga yaqin hukm va baho berish mumkin. Quyida bunga misol keltiraman: **Fil hikoyasi** *Hindlar filni qorong'u bir og'ilga qamadilar. Umrda fil ko'rmagan xalq o'sha yerga to'plandi. Filni ko'rmoqchi edi ular. Lekin og'il shu qadar qorong'u ediki, ko'z bilan ko'rishning aslo imkoni yo'q edi. Ichkariga kirganlar filni qo'llari bilan paypaslab ko'rar, uni har kim o'zicha ta'rif etar edi. Bittasi filning xartumini ushlab: "Fil bir quvur ekan", derdi. Yana boshqasi filning qulog'idan tutib: "Fil yelpig'ichga o'xshar ekan", deya tushuntirdi. Boshqasi filning oyog'ini tutib filni faqat oyoqdan iborat deb bilar va: "Fil bahaybat bir ustunga o'xshar ekan", deya oshirib toshirib tushuntirardi. Yana bir odam filning sirtini silab ko'rdi va: "Fil taxtga o'xshar ekan", deb uni ta'rifladi. Kimki filning qayerini silagan bo'lsa, hayvonni shunga ko'ra ta'riflar, lekin hech birining ta'rifi boshqasinikiga o'xshamasdi. Agar qo'llarida sham,*

*oldilarida biror yo'lboshlovchi bo'lganida, qorong'u bo'lsa ham filni aniq ko'rishar, qanday hayvon ekanini osongina bilib olgan bo'lardi. Ushbu qissadan quyidagicha hissa(lar) chiqaramiz.*

- Har kim o'z dunyoqarashiga ko'ra fikr bildiradi
- Ishonch hosil qilmasdan so'zlamaslik
- Har bir ishda bir yo'l ko'rsatadigan yo'lboshchi, ustoz, maslahat beradigan kishi kerak.

- yetti o'lchab bir kesmoq lozim  
- narsa va hodisalarning biz bilgan tomoniga qarab munosabat bildiramiz va bu eng katta xato

- har bir inson ko'proq bilim olishga, o'qib-o'rganishga harakat qilmog'i, zamon bilan hamnafas bo'lmog'i lozim, Yo'qsa, oddiygina filni bilmaydigan hindlar kabi bo'ladi.

**Qarg'a va laylak hikoyasi.** *Bir kuni cho'lda qarg'a bilan laylakni yonma -yon turganini ko'rib ajablandim. Bu ikki boshqa-boshqa qush, qanday qilib do'st bo'ldi deya ular turgan tarafdga yaqinlashdim. Qarasam, ikkisi ham cho'loq ekan. Ushbu hikoyadan esa quyidagicha hukm chiqarish mumkin:*

- qiyinchilik, chorasizlik xuddi laylak va qarg'a singari insonlarni birlashtiradi. Agar imkoni bo'lganida qarg'a issiq cho'lda laylak bilan yonma-yon o'tirmay, uchib ketardi.

- Qolaversa, hech bir vaziyat va hodisa ko'ringani kabi bo'lmasligi mumkin
- Shoshib qaror chiqarmaslik.
- Vaziyatlarga o'zining pozitsiyasidan emas, chuqurroq nazar solish, ko'rgan har narsaga ishonib fikrlamaslik

- Mulohaza qilishda kengroq tafakkur qilish

**Uch baliq hikoyasi.** *Bir ko'lda uch baliq yashar ekan. Kunlardan birida ko'l yonidan uchta yo'lovchi o'tib qolibdi va baliqlarni ko'rib: "Borib to'rlarni olib kelaylik, bu baliqlarni tutaylik", - deb qaytib ketishibdi. Buni sezgan baliqlarning eng aqllisi vaqtni o'tkazmasdan dengiz tomon yo'l olibdi. Qolgan ikkitasi uni masxara qilishibdi: "Hoy aqlsiz sen yo'lingning yarmiga bormay o'lib ketasan, yaxshisi bu niyatingdan qayt", - deyishibdi. Biroq aqli baliq ularga quloq solmabdi, yo'lida davom etibdi. Ko'p vaqt o'tmay to'rlarini ko'tarib yo'lovchilar kelib qolishibdi. Ikkinchi baliq: "Agar o'zimni o'lganga salsam qutulaman", - deb, suv ustida yotibdi, qimirlamabdi. Baliqchilar "O'lgan baliq" deb, qumga, bir chetga, otib yuborishibdi. Baliq asta-sekin qimirlab suvga yetibdi va bir ovloq joyga yashirinibdi. Uchinchi baliqni yo'lovchilar to'rlari bilan ushlabdi. Baliq aqli baliq bilan ketmaganidan afsuslanibdi. Ushbu hikoyatdan ham hukm(lar) chiqaramiz:*

- Har qanday holatda ham faqat aql bilan ish ko'rmoq lozim xuddi aqli baliq singari
- Doim tadbirli va ehtiyotkor bo'lish kerak.
- Maqsading yo'lida bironlarning fikriga ahamiyat bermasdan yo'lingda davom etsang aqli baliq kabi manzilingga oson yetasan.
- Boshqalarning xatti-harakatiga aralashish xatodir, undan ko'ra inson o'zining yo'lida davom etishi maqsadga muvofiqdir. Qimmatli vaqtni boshqalarning ishiga emas, o'ziga sarflaganida uchinchi baliq omon qolgan bo'lar edi
- Tavakkalchilik qiyin holatlardan omon saqlashi mumkin xuddi ikkinchi baliq omon qolgani kabi
- Vaqtni doimo qadrlash, behuda narsalarga sarflamaslik, soniyasini ham oltinga qiyoslab ish tutish zarurdir



Yuqoridagi hikoyalardan yana ko'plab hukmlar chiqarish mumkin. Har bir hikoyani tahlil qilar ekanmiz aqliy operatsiyalardan beixtiyor foydalanamiz (analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, absdruksiya) Bu esa baholash va hukm chiqarishga yordam beradi. Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asarida bunga o'xshash juda ko'plab hikoyalar mavjud bo'lib talabalarni fikrlashga, mulohaza qilishga, o'z-o'zi bilan savol-javob qilishga undaydigan qimmatli asar hisoblanadi. Shu sababli ham necha asrdan beri shak- shubhasiz o'zining qiymatini yo'qotmagan

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шаюсупова А. А., Хайдарова Р. А. Формирование педагогической компетентности преподавателя языкового вуза в системе непрерывного образования //Бюллетень науки и практики. – 2019. – Т. 5. – №. 6.
2. Scriven, Michael (1997). «The methodology of evaluation». In Stake, R. E. Curriculum evaluation. Chicago: Rand McNally. American Educational Research Association (monograph series on evaluation, no).
3. Harris, T., & Hodges, R. (Eds.). (1995). The Literacy Dictionary, 48. Newark, DE: International Reading Association.
4. Румий Жалолоддин. Маънавий маснавий. Куллиёт Ж.1. К.1. / (Таржима шарҳи билан. Таржимон Асқар Маҳкам. Масъул муҳаррир Т.Маҳмудов.) – Т.: "Шарқ", 1999. – 368 б.
5. Румий Жалолоддин. Маънавий маснавий. Куллиёт Ж.1. К.2. / (Таржима шарҳи билан. Таржимон Асқар Маҳкам. Масъул муҳаррир Ҳ. Ҳомидий.) – Т.: "Янги аср авлоди", 2007. – 274 б.
6. Румий Жалолоддин. Маснавийи маънавий /Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол тарж. – Т.: "МЕРИЮС" ХНМК, 2010. – 846 б.
7. Румий Жалолоддин. Ичиндаги ичиндадур. Фалсафий-маърифий нашр /Улуғбек Ҳамдам тарж. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – 200 б.
8. Фиш Радий. Жалолоддин Румий. Тарихий биографик роман /Русчадан Ж.Камол тарж. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 272б.
9. Избуллаева Г.В. Жалолоддин Румий асарларида юксак маънавиятли шахс тарбияси / Масъул муҳаррир С.С.Булатов. – Тошкент: Фан, 2015. – 208 б.
10. Руми, Джалаладдин. Дорога превращений: суфийские притчи / Джалаладдин Руми; сост., пер. [фарси], религиоз. филос. коммент. Дмитрия Щедровицкого; этико\_психолог. коммент. Марка Хаткевича. – М. : Оклик, 2007. – 380 с.